

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARI KASBIY FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

Beginqulov Zarif Axmadovch

O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Email: zarifbeginqulov77@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar to'g'risida ma'lumotlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, test, imtihon, malaka, qaror, buyruq, reja.

LEGAL FOUNDATIONS OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Abstract. This article examines the measures being implemented to fundamentally improve the teaching of physical education in general secondary schools of our country and to ensure the effectiveness of a system for the continuous professional development of physical education teachers. In addition, the article provides information on the regulatory and legal documents governing the professional activities of physical education teachers in general secondary education institutions.

Keywords: physical education, sport, test, examination, qualification, resolution, order, plan.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются меры, реализуемые в целях коренного совершенствования преподавания предмета «Физическая культура» в общеобразовательных школах страны, а также обеспечения эффективности системы непрерывного профессионального развития учителей физической культуры. Кроме того, в статье представлена информация о нормативно-правовых документах, регулирующих профессиональную

деятельность учителей физической культуры в учреждениях общего среднего образования.

Ключевые слова: физическая культура, спорт, тест, экзамен, квалификация, постановление, приказ, план.

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-394-son Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” Qonunining 3-moddasida: **jismoniy tarbiya** — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan qismi [1], deb qayd etilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish va jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta’minlash, ularning kasbiy va jismoniy mahoratini tizimli ravishda, muntazam oshirib borishni yo‘lga qo‘yish maqsadida qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-392 sonli qaroriga asosan quyidagilar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish;

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti bilan hamkorlikda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy mahorati va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish;

jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tarkibiga mahoratli sportchilarni jalb etish;

jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga malaka toifasi berishning yangi tartibini ishlab chiqish;

o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida maktab sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo‘yicha milliy baholash tizimini ishlab chiqish;

maktablarda o‘quvchilarning sport musobaqalaridagi ishtiroki, maktab sport klublarining faoliyati, o‘quvchilarning sport bilan qamrab olinganlik darajasini aniqlash yuzasidan reyting tizimini joriy etish;

sport turlari bo'yicha yaxshi natijalarga erishgan o'quvchilardan iborat jamoalarni shakllantirgan holda xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlash [2].

Bugungi kunda mamlakatimizning 10 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 33 mingdan ortiq jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari faoliyat yuritmoqdalar. Bu jarayon davlatimiz ta'lim tizimidagi jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish, o'qituvchilar kasbiy mahoratini yanada rivojlantirish va "Besh tashabbus olimpiadasi" kabi tadbirlarni tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar fonida muhim ahamiyatga egadir.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining asosiy vazifasi: o'quvchi – yoshlarni jismonan tetik, xushchaqchaq, mehnatsevar, jasur, vatanparvar, axloqan pok, ma'naviyatli, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishishlari uchun o'zining ilmiy, metodik, kasbiy mahorati bilan zamon talablari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda, bolalarni sportga muhabbatini uyg'otish, o'sib kelayotgan avlodda sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma'naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish, o'quvchilarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish.

Amaliyotdan ma'lumki, mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgan. Ular tegishli normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi, bu hujjatlar umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quv jarayonini takomillashtirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga oid talab va vazifalarni belgilaydi, ularning kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga malaka toifasini berishning yangi tartibi joriy qilindi.

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga malaka toifasini berish quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlari;

ikkinchi bosqich — Sport vazirligi tomonidan belgilangan sport maktablarida tashkil etiladigan amaliy imtihon [2].

2. Malakali o'qituvchilar yetarli bo'lganda "Jismoniy tarbiya" fanini sinfdagi o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib o'qitishga ruxsat etiladi:

o'quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining VIII — XI sinflarda [3].

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislari sifatida malakasini oshiradi:

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari to'rt yilda kamida bir marta malaka oshirishlari shart.

Malaka oshirish shakllarining umumiy davomiyligi kamida 4 hafta (144 soat) etib belgilanadi [4].

4. Umumiy o'rta ta'lim maktabi, ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari o'qituvchisining malaka tavsiflarida jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga alohida talab qo'yilgan:

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi yoshiga nisbatan Sport vazirligi tomonidan belgilangan jismoniy tayyorgarlik va sport sinovlarini bajara olish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi [5].

5. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfida haftasiga 1 soat, 2-11 sinflarida haftasiga 2 soat jismoniy tarbiya fani o'qitiladi:

1-sinf o'quvchilariga bir o'quv yili davomida 33 soat, 2-11 sinflar o'quvchilariga bir o'quv yili davomida 68 soat jismoniy tarbiya fani o'qitiladi [6].

Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejadani ko'chirma

Sinflar	O'quvchilar yoshi	Haftalik yuklama (soatda)		Haftalik yuklamaga nisbatan Jismoniy tarbiya fanining ulushi (foizda)
		Haftalik o'quv soatlari	shundan: Jismoniy tarbiya fanidan o'quv soatlari	
1-sinf	7	21	1	0,48
2-sinf	8	24	2	0,83
3-sinf	9	24	2	0,83
4-sinf	10	24	2	0,83
5-sinf	11	29	2	0,69
6-sinf	12	30	2	0,67
7-sinf	13	35	2	0,57
8-sinf	14	33	2	0,60
9-sinf	15	34	2	0,59
10-sinf	16	31	2	0,64
11-sinf	17	31	2	0,64
Jami		316	21	0,66

Izoh: O'quvchilar yoshi kalendar yili boshiga nisbatan olingan.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish mamlakatimizda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Bu jarayonda umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga ham ma'lum vazifalar yuklanadi. Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar ham takomillashib borilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar

kiritish haqida”gi O‘RQ-394-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-2742233>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-392- son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7221716>

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3137130>

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6093267>

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 16-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash haqida”gi 159-sonli buyrug‘i.

6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 10-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026 o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi 121-sonli buyrug‘i.